

ZA'FARON O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI

Turg'unov Davron Elibekovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti,

Eshonqulov Zoyir Axmadovich

Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
akademik litseyi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6825089>

ANNOTATSIYA: Hozirgi kunda ushbu o'simlik tibbiyot va oziq-ovqat sanoatida keng ishlatiladi. Za'faron qo'shilgan oziq-ovqat mahsulotlari bir necha kungacha sifatini yo'qotmaydi, tanani mustahkamlaydi va yoshartiradi, saraton hujayralari bilan kurashishga yordam beradi, og'riq va spazmlarni samarali ravishda engillashtiradi, gemoglobinni oshiradi va qon bosimini normallashtiradi, uzoq vaqt davomida yaxshi ko'rishni saqlashga yordam beradi, hayz paytida og'riqni engillashtiradi. Za'faron miya faoliyatini yaxshilaydi, xotirani kuchaytiradi va aterosklerozning oldini oladi, umuman ko'rishni tiklashga yordam beradi va xususan fotoreseptorlar, spirtli ichimliklarga qaramlik bilan kurashadi, kuchli *antioksidant* vazifasini bajaradi, jigar va o't pufagini normalizatsiya qiladi, bosh va quloq og'rig'ini davolaydi, parazitlar bilan samarali kurashadi, yuqori nafas yo'llarining kasalliklariga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Shafran, krokus, krotsin, antioksidant

Za'faron (*shafran, krokus*) (*Crocus sativus* L.) – ko'p yillik tugunak piyozli o'simlik hisoblanadi. Bir joyda 5–7 yilgacha yaxshi hosil beradi. *Shafran* so'zi arabcha “zafran” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, za'faron, sap-sariq, sarg'ish degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda *shafran* o'simligi, Hindiston, Italiya, Eron, Xitoy, Pokiston, Ispaniya, Fransiya, Yaponiya, Ozarboyjon, Rossiya, Turkiya va boshqa mamlakatlar hududlarida keng tarqalgan. U juda qimmatbaho o'simlik bo'lib, bir gramm za'faronning narxi bir gramm oltin bahosi bilan tengdir. Za'faron bo'yi past bo'lib, 10–12 sm. ni tashkil etadi. Za'faronning ochilgan guli o'rtasida uch dona otalik changchilari bo'lib, ana shu changchilar terib olinadi[1].





O'zbekiston tabiiy va geologik jihatdan dorivor o'simliklarga boy hudud bo'lib, bu hududda tabiiy holda 4500 turga yaqin yuksak o'simliklar uchraydi. Shulardan 1200 ga yaqinini dorivor o'simliklar tashkil etadi. Shuning uchun keying yillarda hukumatimiz tomonidan mahalliy dorivor o'simliklardan dori vositalari va biologik faol qo'shimchalarni ishlab chiqarishga kata e'tibor berilib, dorivor o'simliklarning sanoat plantatsiyalarini yaratishga kata e'tibor berilmoqda [1].

Klinik kosmetika tadqiqotida za'faron tolalarining ta'siri, etil asetat yordamida: izopropil spirt: suv (65:25:10) erituvchi tizim sifatida, teriga 18 yoshgacha bo'lganlarda ijobiy baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 0,3% shaffron elementlari bilan solishtirganda maksimal ta'siri 4% ga, za'faron ultrabinafsha nurlarning yutilishini quyoshdan himoya qiluvchi vosita ekanligi aniqlandi. [2].

Sof za'faronni qorong'i joyda saqlanib qayta ishlov berilgandan so'ng issiq suvda eritiladi va filtrlab olinib, 4°C da saqlash mumkin[3].

Za'faron o'simligi bor yo'g'i 3 kun davomida gullab turadi. Mana shu muddatda gullardan uch dona changchilarni terib olish lozim. Bir piyozdan bitta yoki uchta katta gul hosil bo'ladi. Gullari qo'ng'iroqsimon bo'lib, oltita gul bargi bor, uch dona otalik changchilari ko'rinib turadi. Ana shular terib olinib, quritiladi va sotiladi yoki foydalaniladi. Onaligi changlanib ulgurgan bo'lsa, qo'ng'iroqcha ichida urug'lari hosil bo'ladi.

Tajribaviy qism. Za'faronning tarkibi quyidagicha 5 dan 7 % gacha mineral moddalar, 10 dan 12 % gacha suv, 5 dan 8 % gacha moylar va mum, 12-13 foizgacha oqsilladan iborat.

Za'fararondan jigar kasalliklarini davolashda ham foydalaniladi, masalan jigarni davolash uchun glukozaga boy bo'lgan mayiz, 1-3 tola za'faron, 1 stakan toza suv olib aralashtiramiz va aralashmani tindirib qo'yamiz. Yarim kun davomida tindirilgan dorivor aralashmamiz 1 oy davomida har doim yangidan tayyorlab ichiladi.

Immunitetimizni ko'tarishimiz uchun ham za'faron kata foyda keltiradi. Buning uchun za'faronni choyga qo'shib istemol qilish mumkin, choynakka 10 tagacha za'faron tolasidan solinadi ustiga 2 stakan suv solinib biroz qaynatiladi, qaynab turgan turgan holida yana 4 stakan suv quyiladi. Tayyor bo'lgan shifobaxsh damlamani tindirib 1 oy davomida ichiladi.

Zafaronning peshob yo'llaridagi toshlarni tushirishda ham foydalaniladi. Buning uchun 1 choy qoshiq za'faron olinib, ustiga 2 yoki 3 stakan qaynagan suv solinadi. Tayyor bo'lgan damlama tindiriladi va 3 mahal ovqatdan oldin 1 osh qoshiqdan ichiladi.

5 tagacha za'faron tolalarini kukun holiga keltirib olinib, za'faron bilan bir xil miqdorda atirgul suvi aralashtirilib ko'zga surilsa, ko'z kasalligiga davo bo'ladi.

Za'farondan 1 choy qoshiqda olib, 1 stakan qaynagan suvga eritib damlama tayyorlanadi. Bu damlama bronxitni davolashda qo'llaniladi. Damlamani kuniga 3 mahaldan 2 osh qoshiqdan istemol qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Za'faronning 5 yoki 7 ta tolasini 1 stakan qaynagan suvga solib ichish ich ketishini to'xtatishda yaxshi samara beradi.

5 g kukun holdagi choy tolalari, choy qoshig'ining 1/3 ida olingan maydalangan zanjabildan aralashtirib ustidan 500 ml qaynoq suv quyiladi. Kun mobaynida 3 yoki 4 mahal 100 ml dan ichiladi. Bu damlamani 1 oy davomida ichilsa allergik kasalligi bor insonlarga foydali bo'ladi.

Prostata saratoni saraton kasalligidan o'limning ikkinchi eng keng tarqalgan sababidir (o'pka va saratondan keyin). Prostata saratoni hujayra chiziqlari za'faron ekstraktining turli konsentratsiyasi bilan inkubatsiya qilinganda

(0,2-4 mg/ml) yoki krosin (0,1-4 mm) ularning potentsial antiproliferativ ta'sirini o'rganish uchun. Bu za'faron ekstrakti ham, krosin ham bog'lash olish orqali saraton hujayrani ko'payishini to'xtatuvchi vosita ekanligini kuzatildi.

Xulosa. Za'faronni xalq tabobatida qo'llanilishining yangi javhalari o'rganish, tarkibida inson salomatligi uchun juda kerakli bo'lgan moddalarni iste'mol qilib, ko'plab kasalliklarni davolashimiz va oldini olishimiz mumkin. Faqat za'faronni iste'mol qilish jarayonini qattiq nazoratga olishimiz, ya'ni belgilangan miqdoridan ozgina ko'proq iste'mol qilishimiz inson salomatligi uchun katta salbiy oqibatlariga olib kelishi, hatto zaharlashi mumkinligini inobatga olishimiz zarur. Biz O'zbekistonda za'faron va shunga o'shah o'simliklarni ko'paytirib, farmatsevtika sohasi uchun dorilarni ishlab chiqarishni takomillashtirish kerak.

**Литература:**

1. 1.М.К. Усманова², А.А. Тўлаганов¹, Б.Ю. Тўхтаев³, Ф.С. Жалилов “ЗАФАРОН (CROCUS SATIVUS L” ўсимлигини етиштириш ва тиббиёт амалиётига тадбиқ етиш.-Ташкент: Ўзбекистон фармацевтик хабарномаси,-2018. №3
2. Hossein Hosseinzadeh¹, and Marjan Nassiri-Asl² “Avicenna’s (Ibn Sina) the Canon of Medicine and Saffron (Crocus sativus)”: A Review.//PHYTOTHERAPY RESEARCH Phytother. Res. (2012) Published online in Wiley Online Library (wileyonlinelibrary.com) DOI: 10.1002/ptr.4784
3. Afshin Khavari, Azam Bolhassani, Fatemeh Alizadeh, S. Zahra Bathaie, Prabha Balaram, Elnaz Agi, Rouhollah Vahabpour. “Chemo-immunotherapy using saffron and its ingredients followed by E7-NT (gp96) DNA vaccine generates different anti-tumor effects against tumors expressing the E7 protein of human papillomavirus”.// Received: 5 June 2014 / Accepted: 30 September 2014- Springer-Verlag Wien 2014.
4. Abdullaev, F.I. (1993) Biological effects of saffron. BioFac1tom. 4, 83-86.
5. X.Nuraliyeva, G.Sulaymonova, Sh. Xasanova. “Ekma za’faronning zararkunanda va kasalliklari tur tarkibi”. 2019. 34s